

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

AXMEDOVA XOLISXON ILXOMOVNA

**O‘ZBEK TILIDAGI GAPLARNI SEMANTIK ANALIZ QILISHNING
MODELI, ALGORITMLARI VA AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

05.01.10–Axborot olish tizimlari va jarayonlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Axmedova Xolisxon Ilxomovna

O'zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilishning
modeli, algoritmlari va axborot tizimini ishlab chiqish 3

Ахмедова Холисхон Илхомовна

Разработка модели, алгоритмов и информационной системы
семантического анализа предложений узбекского языка 22

Axmedova Xolisxon Ilxomovna

Development of a model, algorithms and information system
for semantic analysis of sentences in the Uzbek language 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

AXMEDOVA XOLISXON ILXOMOVNA

**O‘ZBEK TILIDAGI GAPLARNI SEMANTIK ANALIZ QILISHNING
MODELI, ALGORITMLARI VA AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

05.01.10–Axborot olish tizimlari va jarayonlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T2289 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Elov Botir Boltayevich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Saidov Abdusobirjon Abduraxmonovich

texnika fanlari doktori, professor

Muxamedieva Dilnoz Tulqunovna

texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «12» dekabr da soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43; e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2857 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «7» dekabr kuni tarqatildi.

(2023-yil «03» noyabr dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.M.Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

N.O.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

Dj.B.Sultanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kompyuter lingvistikasi sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilish orqali mavjud vazifalarni avtomatlashtirish, inson-mashina interfeysini soddalashtirish va qulaylashtirishga bo'lgan urinishlar natijasida XXI asrga kelib insonlar tabiiy tillarni o'rganish, ulardagi gaplarni analiz qilishni axborot tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Bunday vositalar so'nggi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mahsuli bo'lib, tasvirlar va nutqqa texnik ishlov berish (processing) hamda tanib olish (recognition) tizimlari, matnlarni morfologik, sintaktik analiz qilish tizimlari shular jumlasidandir. Albatta kompyuter lingvistikasi sohasida zamonaviy texnologiyalar bo'yicha ilg'or bo'lgan AQSH, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi davlatlarning yetakchi olimlari olib borayotgan tadqiqotlari natijalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda turli tabiiy tillardagi gaplarni semantik analiz qilishni amalga oshiradigan ko'plab analizatorlar mavjud bo'lib, ularning ishlab chiqishda qo'llaniladigan usul va vositalar tanlangan tilning leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra turlichadir. Bu borada, matnlarga dastlabki ishlov berish va lingvistik analizatorlar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, tabiiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini lingvistik jihatdan to'liq va mukammal ifodalashni amalga oshiruvchi axborot tizimlari ma'lumotlar bazasining ER (Entity Relationship) modelini ishlab chiqish, tilga ishlov berish biznes-jaryonlarini modellashtirish hamda axborot tizimlarini ishlab chiqishga erishish uchun maqbul yondashuvlar va yechimlarni tanlash muhim vazifalar hisoblanadi.

Respublikamizda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va ularni tadqiq etish, ishlab chiqilayotgan axborot tizimlarni ommalashtirish hamda soha bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash davlat darajasida amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, "...axborot texnologiyalari sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish ... istiqbolli innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni amalga oshirish hamda ularni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlash ... raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish..."¹ kabi bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, bugungi kunning eng zamonaviy texnologiyalari asosida ishlab chiqarilayotgan murakkab tizimlarni tahlil qilish va ulardan foydalanishda inson-mashina interfeysining o'zbek modelini ishlab chiqish maqsadida turli loyihalar doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida axborot tizimlarni, xususan, o'zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilish axborot tizimlarini ishlab chiqish va foydalanishga taqdim etish bugungi kunning muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

Respublikamizda axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish hamda mavjud texnik va texnologik vositalarni takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30-iyundagi PF-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2020 yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertasiyaning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ko'plab dunyo olimlarining tadqiqotlari NLP (Natural Language Processing) sohasidagi bir qator muammolarni tadqiq etganligi bilan ahamiyatli. Dunyo kompyuter tilshunosligida semantik analiz va analizator borasida bir qator olimlar ilmiy izlanish olib borishgan. A.V.Tuzov, M.V.Mozgovoy, A.V.Sokirko, N.A.Schlayefer, A.V.Mochalova, A.R.Gatiatullin, B.Yergesh, A.Sharipbay, G.Bekmanova, S.Lipniski, Y.A.Kanevskiy, K.K.Boyarskiy, A.Adali kabi olimlarning tadqiqotlarini ana shunday ishlar sifatida qayd etish mumkin.

O'zbek tilini avtomatlashtirish bo'yicha M.Musayev, M.Sharipov, H.Madatov, B.Elov, I.Bakayev, B.Akmuradov, O'.Xamdorov, J. Elov kabi ko'plab olimlarimiz tomonidan taklif qilingan nazariy va amaliy ishlarni ko'rish mumkin. Tilshunos tadqiqotchilar tomonidan tavsiya qilingan lingvistik modellar asosida semantik analizator yaratishga dastlabki qadam qo'yilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universitetining № IL-402104209 raqamli axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish"(2022-2024) innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tili semantik analizatori uchun omonim, polisemantik va polifunksional so'zlarni semantik analiz qilish jarayonlarini modellashtirish, ma'lumotlar bazasi va tuzilmalarini yaratish hamda axborot tizimi ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tabiiy tilga ishlov berish sohasidagi axborotlashtirish jarayonlari, ilmiy tadqiqot ishlari va joriy etilgan axborot tizimlarining xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish;

o'zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilish axborot tizimining konseptual modelini ishlab chiqish;

ma'lumotlar bazasini normallashtirish qoidalari asosida o'zbek tilidagi omonim, polisemantik va polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi axborot tizimining axborot modeli hamda ma'lumotlar bazasini ER modelini ishlab chiqish;

omonim, polisemantik va polifunksional so'zlarni xususiyatlaridan kelib chiqib ularni semantik farqlovchi qoidalar ishlab chiqish va usullarni aniqlash;

o'zbek tili gaplarni semantik farqlovchi axborot tizimi uchun omonim, polisemantik, polifunksional so'zlarni farqlovchi biznes-jarayonlarining BPM (Business Process Model) modellarini ishlab chiqish;

semantik analizator axborot tizimining arxitekturasini ishlab chiqish hamda funksional jarayonlarini modellashtirish;

o'zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilish axborot tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek tilidagi omonim, polifunksional va polisemantik so'zlarni semantik analiz qilish jarayonlari va tizimlari olingan.

Tadqiqot predmetini omonim, polifunksional va polisemantik so'zlarni farqlovchi usullar, modellar hamda jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda axborot tizimlari va relyatsion ma'lumotlar bazasini loyihalash, strukturaviy va funksional modellashtirish, biznes jarayonlarni modellashtirish asosida axborot tizimini ishlab chiqish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi omonim, polifunksional va polisemantik so'zlarni kontekstda farqlash usullari aniqlandi hamda semantik analizator axborot tizimining konseptual modeli ishlab chiqilgan;

ma'lumotlar bazasining asosiy atributlari yordamida ma'lumotlarni jamlash, ishlov berish uchun ma'lumotlarning relyatsion modeli va normallashtirish qoidalari asosida o'zbek tilidagi omonim, polifunksional va polisemantik so'zlarni semantik farqlovchi axborot tizimining ma'lumotlar bazasining ER modeli ishlab chiqilgan;

o'zbek tilidagi omonim, polisemantik va polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi biznes-jarayonlarining BPM modellari ishlab chiqilgan va jarayonlari lingvistik ma'lumotlar bilan ta'minlangan;

statistik ma'lumotlarga asoslangan holda gap tarkibidagi omonimiya, polisemiya va polifunksionallikni aniqlash, qaror qabul qilishga ko'maklashuvchi ma'lumotlarni jamlash, ishlov berish va taqdim etish axborot tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

semantik analizator axborot tizimining konseptual modeli, funksional jarayonlarining BPM modellari ishlab chiqilgan;

omonim, polisemantik va polifunksional so'zlarni farqlovchi axborot tizimining ma'lumotlar bazasining ER modeli ishlab chiqilgan;

omonimiya, polisemiya va polifunksionallikni farqlovchi axborot tizimining axborot modellari ishlab chiqilgan;

korpusda omonimiya, polifunksional va ko'p ma'noli so'zlarni farqlash, ma'lumotlarni kiritish, o'zgartirish, o'chirish va foydalanuvchilarga taqdim etish uchun qulay interfeys ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'rganilgan materiallarning o'zbek tili

tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi o'zbek tili semantik analizatorining modellarini, jarayonlarini loyihalashtirishda amalda isbotlangan manbalar, o'zbek tilining lingvistik asoslariga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot o'zbek tili semantik analizatori ishlab chiqishning nazariy asoslari va uning jarayonlari hamda modellarini ishlab chiqishda soha mutaxassislariga tadqiqotlar olib borishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili milliy korpusining takomillashishi hamda mukammallik darajasini oshirish imkoniyatlarini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Semantik analizatorning axborot-qidiruv tizimidagi ahamiyati, axborot qidiruv tizimida omonim, polifunksional hamda ko'p ma'noli so'zlarni farqlashning matematik modellari, o'zbek tili semantik analizatori uchun omonim, polifunksional va ko'p ma'noli so'zlarni farqlashni amalga oshiruvchi matematik modellar, biznes-jarayon va axborot tizimidan:

tadqiqot davomida ishlab chiqilgan matematik modellar va algoritmlar majmuasini joriy qilish va sinovdan o'tkazish natijasida o'zbek tilida mavjud bo'lgan jami 1065 dan ortiq omonim so'zlarni farqlovchi jami 19 ta matematik model, polisemantik so'zlarni farqlovchi matematik mantiqqa asoslangan 1 ta model va polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi jami 5 ta matematik model ishlab chiqilgan;

o'zbek tilidagi omonim va polisemantik so'zlarni semantik farqlash uchun 200 dan ortiq so'z guruhlari, 50 dan ortiq qo'shimchalar va qo'shimchalar kombinatsiyalari guruhlari ishlab chiqilgan;

omonimiyani aniqlashda korpus ma'lumotlari asosida statistik usullardan foydalanish metodlari asoslangan;

omonimiya, polisemiya va polifunksionallikni aniqlashni amalga oshiruvchi axborot tizimning ma'lumotlar bazasining ERD modeli ishlab chiqilgan;

tadqiqot davomida o'zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qiluvchi axborot tizimini ishlab chiqishda qo'llanilgan "Qoidalarga asoslangan usul", "Statistik ma'lumotlarga asoslangan usul" va "Mashinali o'qitishga asoslangan usul" lar yordamida omonimiya masalasini yechishga erishilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022 yil 22 noyabrda dalolatnomasi). Natijada ishlab chiqilgan matematik modellar va biznes-jarayonlar majmuasini joriy qilish va sinovdan o'tkazish natijasida o'zbek tilida mavjud bo'lgan jami 3000 ga yaqin omonim so'zlarni farqlovchi usullar aniqlangan, 19 ta matematik model, polisemantik so'zlarni farqlovchi matematik mantiqqa asoslangan 1 ta model va polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi jami 5 ta matematik model ishlab chiqilgan; tadqiqot davomida ishlab chiqilgan axborot tizimida "Qoidalarga asoslangan usul", "Chastotali usul", "Naive Bayes klassifikatori" hamda Yashirin Markov modellaridan foydalanilgan va ishlab chiqilgan biznes-jarayonlar asosida omonimiyani bartaraf etish aniqligi 84 foizni, polisemiyaning farqlash aniqligi 73 foizni va polifunksionallikni farqlash aniqligi 74.5 foizni tashkil etgan.

tadqiqot natijalaridan Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan "Mustafo Software MCHJ" dasturlash firmasi dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan

“MyDoctor consultant” dasturini yaratishda foydalanildi (Mustafo Software MCHJ” direktorining 2023-yil 1-fevraldagi dalolatnomasi). Tadqiqot natijalaridan foydalanish natijasida inson a’zolari orasidagi ko‘p ma’nolilikni aniqlashga erishildi. Berilgan xulosalardagi ma’nolarni aniqlashda semantik o‘xshashliklarni aniqlash natijalaridan foydalanildi. Bu “MyDoctor consultant” dasturining samaradorligini 1.2 barobarga oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro, 5 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha 30 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, ulardan 4 tasi xorijiy (2 ta Scopus bazada indekslangan) jurnallarda chop qilingan va 1 ta monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Hajmi 118 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan, obyekt va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Gaplarni analiz qilish usullari va tizimlari”** deb nomlangan. Bobning *“Tabiiy tillarda gaplarni tahlil qilish tizimlari”* nomli birinchi bo‘limida gap analizatorlarining umumiy masalalari, ularning turlari, dunyo va o‘zbek kompyuter tilshunosligida analizator tadqiqi masalalari tahlil etilgan. Bo‘limda lingvistik analizatorning turlari *morofologik, sintaktik, semantik analizatorlar* va ularning vazifalari haqida umumiy ma’lumotlar berilgan.

Bobning *“Gaplarni semantik analiz qilishning model va metodlari”* deb nomlangan ikkinchi bo‘limida matnlarni semantik analiz qiluvchi model va metodlar haqida fikr yuritilgan. Semantik analizni amalga oshiruvchi axborot tizimi turli tillarda turlicha model va algoritmlarga asoslanadi. Bobda omonim, polisemantik va polifunksional so‘zlarni semantik analiz qiluvchi tizimni ishlab chiqishdagi zarur bo‘lgan yondashuvlar haqida ma’lumot berilgan. Omonimiyani aniqlashning mavjud yondashuvlari lokal va global sintaktik tahlil, semantik lug‘at va ehtimolliklarga asoslanadi. Grammatik va statistik hodisalardan foydalangan holda korpusdagi so‘zlarning belgilari asosida omonimiya hodisasi aniqlanadi. Omonimiyani muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun aniq natijalar kerak. Bundan tashqari ma’lumotlar hajmining kattaligi ularga ishlov berishni sekinlashtiradi, bu esa **kombinator portlash** deb ataladi. Jahon kompyuter lingvistikasida gaplarni semantik tahlil qilishda asosan 3 ta yondashuvdan foydalanilgan: *Qoidalarga asoslangan yondashuv*;

Statistik ma'lumotlarga asoslangan yondashuv; Mashinali o'rganishga asoslangan yondashuv.

Qoidalarga asoslangan yondashuv – soʻzlarni til grammatikasining qoidalari yordamida semantik analiz qilish nazarda tutilgan. Oʻzbek tilida qator qoidalar ishlab chiqilgan. Dissertatsiya ushbu qoidalarga asoslangan holda baʼzi turdagi omonim soʻzlarni farqlovchi matematik modellar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, baʼzi hollarda kontekst tahlili gapning bir qismining sintaktik tuzilishini va u yordamida soʻzshakllarini tushunishga yordam beradi.

Statistik ma'lumotlarga asoslangan yondashuv – masalani yechishda soʻzlarning grammatik parametrlarini tasniflash orqali foydalaniladi. Bu parametrlar turli tabiiy tillarda turlicha tanlab olinadi. Tasniflash parametrlari sifatida morfologik tahlil, lemma, oʻzak, oʻzak + qoʻshimcha kabi parametrlar boʻlishi mumkin. Soʻzning semantik azalizining aniqlik darajasi yuqori boʻlmasa, tasniflanish parametrlarini kengaytirishga zarurat tugʻiladi. Ushbu yondashuvning asosiy vazifasi kontekst tarkibini n-grammlarga ajratish, yaʼni kontekstdagi kirish soʻzining birikuvchilari aniqlab, baholash metodlari yordamida baholanadi. Baʼzi statistik usullarda soʻz va uning qoʻshimchalari orqali qaror qabul qilinsa, baʼzilarida soʻzning kontekstdagi semantik valentliklari(birikuvchilari) yordamida xulosa qilinadi.


Mashinali o'rganishga asoslangan yondashuv –statistik usullarga qoʻshimcha boʻlib, jahon olimlari hozirda omonimiyani aniqlashda keng foydalanmoqdalar. Mashinali oʻrganishga asoslangan yondashuv yordamida oʻzbek tilidagi bir soʻz turkumi doirasidagi omonimiyani aniqlash mumkin degan xulosaga kelindi. Koʻplab xorijiy tajribalar shuni koʻrsatadiki, ushbu yondashuvdan foydalanish uchun maʼnosi oldindan aniqlangan, belgilangan matnlar kerak boʻladi. Bundan kelib chiqadiki, oʻzbek tili milliy korpusi maʼlumotlar bazasidagi katta hajmdagi matnlarni semantik teglash, maʼnolarini belgilab olish dolzarb masaladir.

Bobning "*Oʻzbek tili semantik analizatorida matnlarni semantik teglash usullari*" nomli uchinchi boʻlimida oʻzbek tili semantik analizatorini yaratishi jarayonida foydalaniladigan matnlarni teglash masalasi tavsiflangan. Tabiiy tillarga ishlov berish jarayoni (NLP-Natural languages processing) ning muammolarini ketma-ket modellashtirish zamon talabidir. Matnda omonim va polifunksional soʻzlarning aniqlanishida bevosita soʻz turkumlarini teglash muammosiga duch kelish mumkin. Masalan, oʻzbek tilidagi ikki soʻz turkumi doirasidagi omonim soʻzlarning maʼnolarini kontekstda aniqlash jarayonida *Qoidalarga asoslangan teglash usuli ham, Stoxastik teglash usuli* ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoidalarga asoslangan teglash. Soʻz turkumlarini avtomatik teglash odatda qoidalarga asoslangan yondashuvlar nomaʼlum yoki noaniq soʻzlarga teglar belgilash uchun kontekstli maʼlumotlardan foydalanadi.

Stoxastik teglash usuli. "Stochastic tagging" ST atamasi tegi muammosiga turli xil yondashuvlarni nazarda tutishi mumkin. Baʼzi manbalarda statistik metod deb ham qoʻllaniladi. Har qanday holatda chastota yoki ehtimollikni oʻz ichiga olgan har qanday model *toʻgʻri stoxastik model* deb belgilanadi. Eng oddiy stoxastik teglash soʻzlarni faqatgina soʻzning maʼlum bir teg bilan paydo boʻlish ehtimoli asosida ajratib turadi.

Dissertatsiyaning **II bobi “Soʻzlarni semantik analiz qilish usullari”** deb nomlangan. Bobning “*Oʻzbek tilida omonimiyani bartaraf etish usullari*” nomli birinchi boʻlimida oʻzbek tilidagi omonim soʻzlarni semantik farqlovchi matematik modellar oʻrganilgan. Oʻzbek tilidagi omonim soʻzlarni semantik farqlashda ikki guruhga: *bir soʻz turkumi doirasidagi va turli soʻz turkumi doirasidagi omonim* soʻzlarga ajratilgan. Har bir guruhdagi omonim soʻzlarni farqlovchi matematik mulohazalar ishlab chiqildi. Omonim soʻzlarni soʻz turkumlari doirasida 1-rasmdagi kabi klassifikatsiya qilingan. 2-rasmda keltirilgan iyerarxiyadan tasvirlanganidek bir soʻz turkumi, yaʼni feʼl, ot, sifat, undov va olmosh soʻz turkumi doirasidagi omonim soʻzlar kuzatilgani haqida Sh.Gulyamovning tadqiqotlarida taʼkidlangan.




1-rasm. Oʻzbek tilidagi omonim soʻzlar iyerarxiyasi

Bir soʻz turkumi doirasidagi omonimiyani aniqlashni feʼl soʻz turkumida 5 xil maʼnoga anglatuvchi *suzmoq* feʼli misolida keltiramiz. *Suzmoq* feʼlining maʼnolari 2-rasmda keltirilgan. **Suz** soʻzi kontekstda turli maʼnoni anglatada, bir xil qoʻshimcha bilan birikib kelgan holatlar koʻp uchraydi. Mazkur masalani yechishda Mashinali oʻrganishga asoslangan usuldan foydalanish tavsiya qilingan, chunki bir soʻz turkumi doirasidagi omonimlikni farqlashda hech qanday fiksirlangan qoida mavjud emas. Agar boʻlsa ham umumiy emas. Qoidalarga asoslangan yondoshuv yordamida ham bu masalaga yechim topib boʻlmazligi ham asoslangan. Demak, bir soʻz turkumi doirasidagi omonimiyani aniqlash *mashinali oʻrganishga asoslangan yondashuvga*

X ₁	≡	Suyuqlikni filtrlamoq
X ₂	≡	Suvda harakatlanmoq
X ₃	≡	Ovqatni idishga solmoq
X ₄	≡	Noz-karashma qilmoq
X ₅	≡	Shohi bilan hujum qilmoq


2-rasm. Suz soʻzining maʼnolari



3-rasm. Suz soʻzining semantik birikuvchilarining soʻz guruhlari

murojaat qilishni taqozo etadi. Tadqiqot ishining bajarilishi davomida neyron tarmoqlarga murojaat qilinmagan. Ammo bir soʻz turkumi doirasidagi omonimiyani aniqlashni boshqa bir usulini, yaʼni neyron tarmoqlardan foydalanishda zarur

bo'ladigan so'z guruhlaridan foydalangan holda yechish taklif qilingan. Darhaqiqat, bu usul yordamida to'liq maqsadga erishilmaydi albatta, lekin ma'lum darajada vazifa bajariladi. Omonim so'zning semantik valentliklari yordamida aniqlash jahon tajribasida *semantik konkordanse* usuli deb nomlanadi. *Suzmoq* fe'lining ma'nolarini x_i bilan belgilangan (2-rasm). Demak, 5 ta yashirin holat mavjud, ya'ni yashirinligi shundaki, berilgan gapda uchragan *suzmoq* fe'lining aynan qaysi ma'noni anglatayotganligi noma'lum. Berilgan gapdagi *suzmoq* fe'lining aynan qaysi ma'noda kelganligini aniqlash uchun kontekstdan foydalaniladi. Buning uchun omonim so'zning semantik valentliklari (birikuvchilari) oldindan belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak. *Suz* omonim so'zning semantik birikuvchilari guruhlar bilan birikkanida 4-rasmdagi kabi ma'nolarni anglatishi aniqlandi. Ushbu rasmda tasvirlangan har bir so'z o'zining semantik iyerarxiyasiga ega. Demak kontekst orqali so'z ma'nosini aniqlash uchun o'zbek tilida mavjud bo'lgan so'zlarni semantik guruhlariga ajratib chiqish kerak degan xulosaga kelish mumkin. 4-rasmdagi *suzmoq* fe'lining birikuvchilari *sut emizuvchi hayvonlar, filtrlanish xususiyatiga ega bo'lgan suyuqliklar, suyuqlik bilan bog'liq bo'lgan harakat va holat fe'llari, oshxona anjomlari* kabi so'z guruhlariga mansub so'zlardan iborat bo'lganda suyuqlikni filtrlamoq manosi anglatishi mumkin.



4-rasm. Suzmoq fe'lining semantik valentliklar to'plami

Shu yerda savol paydo bo'ladi. *Bir so'z turkumi doirasida omonimlik hosil qiluvchi so'zlar ko'p ularning har biri uchun shunday so'z guruhlarini aniqlab chiqiladimi?* Ushbu savolga javob topish uchun ko'plab ilmiy izlanishlarni tahlil qilindi, jahon tajribasi o'rganildi. Nihoyat, buning boshqa yechimi yo'q degan xulosaga kelindi. Omonim so'zlarni o'zaro semantik guruhlariga ajratish kerak degan fikr ham paydo bo'ldi, ammo bu fikr ham o'zini oqlamadi. Bir so'z turkumidagi omonim so'zlarni har birining semantik valentliklarini aniqlash va ularni semantik guruhlariga ajratishda katta hajmdagi ma'lumotlar, asarlar, maqolalar kerak bo'ladi. Bu esa bizda mavjud, ya'ni O'zbek tili milliy korpusi¹ ma'lumotlar bazasidan 2 milliarddan ortiq matnlar joy olgan. So'z guruhlarini so'zlar bilan to'ldirish, omonim so'zlarni birikuvchilarni ajratib olish va belgilash kabi ishlar korpus ma'lumotlari yordamida mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi ancha qulay ekanligi haqida aytib o'tilgan. Bo'limning *Turli so'z turkumlari doirasidagi omonimiyani bartaraf etish usullari* deb nomlangan faslida esa o'zbek tilidagi turli so'z turkumlari doirasidagi omonim so'zlarni farqlashda *qoidalarga asoslangan va statistik ma'lumotlarga asoslangan* yondashuvlardan foydalanish haqida yoritib berilgan.

¹ <http://uzschoolcorpara.uz/uz>

O'zbek tilidagi omonim so'zlar turli so'z turkumlari doirasida omonimlik hosil qilishiga ko'ra uchta (2,3,4 so'z turkumlari doirasida) guruhga ajratilgan va so'z turkumlari guruhlari ham aniqlangan. Turli so'z turkumlari doirasidagi omonimiyani farqlashda qoidalarga asoslangan usuldan foydalanilgan. Misol tariqasida uchta so'z turkumi (ot v son v fe'l) doirasida omonimlik hosil qiluvchi so'zlarni farqlovchi model keltirilgan:

- 1) **Uch:** Biror narsaning boshlanish yoki tugash qismi. (ot)
- 2) **Uch:** Ikki bilan to'rt orasidagi butun son. (Son)
- 3) **Uch:** 1. Havo bo'ylab harakatlanmoq. (fe'l)
2. Biror qirrasi shart uzilib tushmoq.
3. Beixtiyor berilmoq, laqillamoq

Kuzatuvlar natijasida quyidagi qoidalarga yig'ildi:

- **uch**+*-i/-iga/-ni/-da* ⊕ *bor/ulamoq/boshlamoq/turmoq/...* (ot)
- **uch**+*-inchi/-nchi/-ta/-tacha/-tadan/-larcha/* ⊕ *oy nomlari/dars/uy/...* (son)
- **uch**+*-ov/-ovlon/..* ⊕ *gaplashmoq/ko'rishmoq/kelmoq/ketmoq/...* (son)
- **uch**+*dan* ⊕ *bir/ikki/uch/to'rt/...* (son)
- *Balandga/osmonga/...* ⊕ **uch** (fe'l)
- *Toshkentdan/shahardan...* ⊕ **uch** (fe'l)

Yuqoridagi morfologik xususiyatlarni inobatga olib son so'z turkumidagi omonim farqlovchi modelni quyidagicha keltirish mumkin.


$$H_{num,N,V} = \begin{cases} H^{num} + \downarrow aff_l^{ord} \oplus \downarrow (W_k^N + \downarrow aff_l^{ord}) \oplus N_j^c \\ \downarrow W_i^{dec} \oplus H^{num} + \downarrow aff_l^{ord} \oplus N_j^c \\ H^{num} + aff_j^{agg} \oplus V \\ H^{num} + dan \oplus W_n^{num} \\ N + aff_i^N \\ V + aff_j^V \end{cases} \quad (1)$$

Bunda,

aff_j^{agg} –jamlovchi qo'shimchalar to'plami, $aff_j^{agg} = \{-ov, -ovlon, -ala, -ovi, -oviga, -ovloni, \dots\}$; W_n^{num} –sonlarning nomlaridan iborat so'zlar to'plami, $W_n^{num} = \{bir, ikki, uch, \dots\}$


Turli so'z turkumlari orasida shunday so'z turkumlari borki (5-rasm), grammatik jihatdan o'xshash, ular orasidagi omonimiyani aniqlashda qat'iy qoidalar ish bermaydi. Shuning uchun statistik ma'lumotlarga asoslangan usuldan foydalangan ma'qul. Chastotali usul ana shunday statistik usullardan biridir. *Ot yoki sifat* so'z turkumi doirasidagi omonimiyani Chastotali usul yordamida aniqlashni ko'rib chiqamiz. Chastotali usuldan foydalanish uchun so'z turkumlarini farqlovchi tasniflash parametrlari ajratib olishni talab etadi. *Ot V sifat* so'z turkumi doirasidagi omonim so'zlar quyidagi parametrlar bo'yicha tasniflanadi:

1. So'z turkumi;
2. O'zak va lemma;
3. Faqat lemma
4. Faqat o'zak



5-rasm. Grammatik jihatdan o'xshash bo'lgan va o'zaro omonimiya hosil qiluvchi so'z turkumlari.

Uzschoolcorpora.uz sayti orqali sifat V ot so'z turkumi doirasida omonimlik hosil qiluvchi *alomat* so'zi qidirilganda jami 6823 ta ma'lumot topildi, shulardan 100 tasi tahlil qilinganda 79 tasi *ot* so'z turkumi, 21 tasi *sifat* so'z turkumi ekanligi aniqlandi. Aniqlangan ma'lumotlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratilib tahlil qilinganida quyidagi ehtimolliklar hisoblandi.



6-rasm. Alomat so'zining korpusda uchrash holatlarining ehtimolliklari

Tasniflash parametrlar asosida hisoblangan ehtimolliklar shuni ko'rsatadiki, *ot* yoki *sifat* so'z turkumlari doirasida omonimiya hosil qiluvchi so'zlarni ot so'z turkumiga oid deya baholanadi, qachonki tarkibida ot so'z turkumiga xos qo'shimcha bilan birikkan bo'lsa. Undan tashqari turli so'z turkumlari doirasidagi omonimiyani aniqlashda Naïve Bayes usulidan foydalanish haqida ham yoritib berilgan.

Bobning "*O'zbek tilidagi polisemantik so'zlarni aniqlash usullari*" deb nomlangan uchinchi bo'limida polisemiyaning farqlashning usullari haqida so'z yuritiladi. Bu bo'limda *ko'z* so'zi misolida polisemiyaning aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan. Polisemiyaning aniqlashda segmentatsiya usulidan foydalanish asoslangan.

Anor xolaning ko'zi tekkan aslida, aks holda o'qishga kirgan bo'lardi.

Namunada berilgan *ko'z ko'p ma'noli so'zi xola so'zi bilan birikkan*, lekin *ko'z* so'zidan keyin *tekkan* so'zining uchrashi *ko'chma ma'noga* olib keladi. Undan kelib chiqadiki, *ko'p ma'noli so'zning o'ng va chap birikuvchilari o'z va ko'chma ma'no* hosil qilishiga *ko'ra ham guruhlarga ajratilishi lozim*. *Ko'z so'zining o'z va ko'chma ma'nolarini* hosil qiluvchi birikuvchilari tasvirlangan ierarxiyalarda ko'rsatilgani kabi so'zlarni guruhlarga ajratish kerak. So'zlar qancha kichik-kichik guruhlarga ajratilsa *ko'p ma'noli so'zlarning semantik tahlili shuncha aniq bo'ladi*. Xorijiy tajribalarga ko'ra *ko'p ma'noli so'zlarni semantik tahlil qilishda statistik metodlardan foydalanish eng ma'qul yechim hisoblanadi*.

Ko'z so'zining birikuvchilarini o'z va ko'chma ma'no anglatishiga ko'ra guruhlarga ajratib olinadi.

$w_i^b - P$ polisemantik so'zning chap tomonidan birikib asl ma'nosini hosil qiluvchi so'zlar to'plami;

$w_j^a - P$ polisemantik so'zning o'ng tomonidan birikib asl ma'nosini hosil qiluvchi so'zlar to'plami.


Ajratilgan birikuvchilar to'plamlarini mavjud deb faraz qilib, quyidagi matematik modeli keltirilgan.

$$w_r^{b_k} + \downarrow aff^{s_l} \oplus P_k + \downarrow aff^{s_l} \oplus w_l^{a_k} + \downarrow aff^{s_l} = \begin{cases} P_k^s, T(w_r^{b_k}) \wedge T(w_l^{a_k}) = 0 \\ P_k^p, T(w_r^{b_k}) \wedge T(w_l^{a_k}) = 1 \end{cases} \quad (2)$$

(2) model yordamida quyidagi jumladagi *ko'z* so'zini tahlil qilishni ko'rib chiqilgan.

Anor xolaning **ko'zi tekkan** aslida, aks holda o'qishga kirgan bo'lardi

Jumladagi *ko'z* so'zi o'ng tomonidan *xola* (*ko'rish xususiyatiga ega*) so'zi bilan birikkan, demak $xola \in \{inson\}$ guruhiga mansub so'z va $T(xola)=1$ - *xola* so'zi bilan *ko'z* so'zi birikib bu *ko'p ma'noli so'z o'z* (*ko'rish organi*) ma'nosini anglatadi; Chap tomonidagi *teg* so'zi *ko'zning funksiyasiga tegishli* emas va $T(teg)=0$. Demak,



keltirilgan gapdagi *ko'z* so'zi uchun (3) matematik model yordamida yuqori natijaga erishish uchun o'zbek tilida mavjud so'zlar semantik guruhlarga ajratilishi lozim.

Bobning uchinchi "*Kontekstda polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi modellar*" bo'limida o'zbek tilidagi polifunksional so'zlarning klassifikatsiyasi keltirilgan. Polifunksional so'zlar ham omonimlar kabi morfologik xususiyatlari asosida farqlanishi mumkin. Ammo bu usulning o'zi barcha polifunksional so'zlarni farqlab, model tuzish uchun yetarli emas. Chunki ba'zi so'z turkumi kontekstda aniqlanadi. Garchi shunday bo'lsa-da, polifunksionallikni farqlovchi tizim uchun aniq qonuniyatlar, modellar kerak bo'ladi. Sh.Gulyamova turkumlar kesimida klassifikatsiya qilganida, har bir guruh polifunksional so'zlari uchun lingvistik model

ishlab chiqqan. Ushbu lingvistik modellar asosida matematik modellar ishlab chiqildi. *ot* $\vee$ *sifat* soʻz turkumlari orasidagi polifunksionallikni aniqlovchi matematik model keltirilgan.

$$\begin{aligned} & - \text{Kasal} + -i/ni/ga/lar/da/ini/... \oplus \text{aniqlandi/ko 'rmoq/keldi/...} \\ & - \text{Kasal} \oplus \text{odam/bemor/hayvon/qush/...} \\ Pf_{adj,N} &= \begin{cases} Pf^N + \downarrow aff^N \oplus V \\ Pf^{adj} + \downarrow aff^{deg} \oplus N \end{cases} \end{aligned} \quad (3)$$

(4) yordamida *ot* $\vee$ *sifat* soʻz turkumlari orasidagi polifunksionallikni aniqlash tavsiya qilingan. Xuddi shunday *sifat* $\vee$ *modal*, *sifat* $\vee$ *ravish*, *mustaqil* $\vee$ *ko 'makchi fe'l*, *bog 'lovchi* $\vee$ *modal* soʻz orasidagi polifunksionallikni aniqlovchi matematik modellar ishlab chiqilgan.

$$Pf_{M,Adj} = \begin{cases} Pf^{adj}, \text{ agar } Pf^{M,Adj} + \downarrow aff^{adj} \oplus W^{Pf_{adj}} \\ Pf^M, \text{ agar } W^M \oplus Pf^{M,Adj} \oplus W^M \end{cases} \quad (4)$$

$$Pf_{Adj,Adv} = \begin{cases} Pf^{Adj}, \text{ agar } Pf^{Adj,Adv} + aff^{deg} \oplus N^{Pf_{adj}} \\ Pf^{Adv}, \text{ agar } Pf^{Adj,Adv} \oplus V \end{cases} \quad (5)$$


$$Pf_{I,Aux} = \begin{cases} Pf^I, \text{ agar } W^x + aff^{CS} \oplus Pf^{I,L} \\ Pf^{Aux}, \text{ agar } V^{Aux} + aff^{Aux} \oplus Pf^{I,Aux} \end{cases} \quad (6)$$

$$Pf_{Conj,M} = \begin{cases} Pf^{Conj}, \text{ agar } W^{Conj} \oplus Pf^{Conj,Aux} \oplus W^{Conj} \\ Pf^M, \text{ agar } W^M \oplus Pf^{Conj,M} \oplus V \end{cases} \quad (7)$$

Dissertatsiyaning III bobi “O‘zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilish axborot tizimining modellari va jarayonlarini loyihalashtirish” deb nomlangan bo‘lib uchta bo‘limdan iborat. Bobning “O‘zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilish axborot tizimining axborot modelini loyihalashtirish” deb nomlangan birinchi bo‘limida axborot tizimining asosi bo‘lgan axborot modeli (7-rasm) hamda ma’lumotlar bazasining ER modeli ishlab chiqilgan, uning obyektlari, ma’lumotlarning turlari haqida soʻz yuritilgan. O‘zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilish axborot tizimining ma’lumotlar bazasi ER modeli IDEF1X notatsiyasi yordamida Visio platformasida ishlab chiqilgan(9-rasmda).


Bobning “O‘zbek tilidagi gaplarni semantik tahlil qilish axborot tizimining funksional jarayonlarini modellashtirish” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida semantik analizator axborot tizimining konseptual modeli, o‘zbek tilidagi gap tarkibidagi omonim, polisemantik va polifunksional soʻzlarni semantik tahlil qiluvchi axborot tizimining biznes-jarayonlarining BPM modellari ishlab chiqilgan. 10-rasmda semantik analizator axborot tizimining konseptual modeli keltirilgan. Omonimiyani aniqlashda inson ismlari va leksik birliklarning omonimlik hosil qilishi masalasi ham inobatga olingan. Turli soʻz turkumlari doirasidagi omonimiyani farqlovchi har bir model uchun algoritmlar ishlab chiqilgan.

Bobning “Semantik analizator axborot tizimining imkoniyatlari va tahliliy natijalari” deb nomlangan uchinchi bo‘limida o‘zbek tilidagi gap tarkibidagi omonim, polifunksional va polisemantik soʻzlarni ma’nosini aniqlovchi axborot




7-rasm. O‘zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilish axborot tizimining axborot modeli

tizimining imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan Undan tashqari semantik analiz va uni o‘rganish haqidagi ma’lumotlar berilgan. Semantik analiz NLP uchun juda muhim, chunki uning jarayonlari so‘zlarning turli ma'nolarini aniqlashga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bu jarayonlar mashinaga butun jumlar va matnlarning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Semantik analizator axborot tizimi foydalanuvchilari veb brauzer yordamida internet yoki lokal tarmoq orqali murojaat qiladi. Bunday holatda xavfsizlikni ta'minlash uchun veb brauzerdan veb servergacha kelgan trafikning maxfiyligini ta'minlash, foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilishni ta'minlash kerak. Tizim foydalanuvchilarining autentifikatsiyasi, identifikatsiyasi va avtorizatsiyasi arxitekturasi 8-rasmda keltirilgan. Foydalanuvchilarning authorizatsiyasini ta'minlash uchun axborot tizimida rollar mexanizmidan foydalanilgan. 12-rasmda rollarning vazifalari belgilangan.




8-rasm. Semantik analizator foydalanuvchilarining autentifikatsiyasi, identifikatsiyasi va avtorizatsiyasi




9-rasm. Semantik analizator axborot tizimining ma'lumotlar bazasining ER modeli

Semantik analizator axborot tizimini ishlab chiqishda foydalanilgan usullarning aniqlilik darajasi 1-jadvaldagi kabi asoslandi.

1-jadvalda keltirilgan qiymatlar har bir turdagi so'zlarni aniqlashda ishlab chiqilgan matematik modellar, aniqlangan tasniflash parametrlari hamda so'zlarning semantik guruhlari natijalarida olingan. O'zbek tilidagi gaplarni semantik analiz qilish axborot tizimini ishlab chiqishda asosan qoidalarga asoslangan usul, Chastotali usul, Naïve Bayes klassifikatori hamda Yashirin Markov modellaridan foydalanildi. YMM dan foydalanish uchun mavjud omonim so'zlarning trigrammalaridan iborat o'rtacha 5000 ta so'z birikmalari semantik teglangan holda ma'lumotlar bazasiga joylandi. Omonimiyani aniqlash uchun ishlab chiqilgan qoidalar hamda taklif qilingan usullar sinovdan o'tkazilganida omonim so'z orasidan keng qo'llaniladiganlari saralab olinib ularning har biri bo'yicha o'rtacha



10-rasm. Axborot tizimining konseptual modeli



11-rasm. Axborot tizimining umumiy biznes-jarayonlarining BPM modeli


**Omonim, polisemantik va polifunksional soʻzlarda foydalanilgan
usullardan olingan natijalar**

Usullar	Omonimiya		Poli- semiya	Polifunk- sionallik (120)
	Bir soʻz turkumi doirasidagi omonimiya (692)	Turli soʻz turkumlari doirasidagi omonimiya (406)		
		Grammatik jihatdan oʻxshash boʻlgan soʻz turkumlari orasidagi omonimiya (243)	Grammatik jihatdan oʻxshash boʻlmagan soʻz turkumlari orasidagi omonimiya (163)	
Qoidalarga asoslangan usul	–	–	81,7%	–
Chastotali usul Naïve Bayes usuli	–	95%	7,3%	12,1%
YMM	80,5%	93%	–	70%

192 ta gap tizimga kiritildi va ularda 157 holatda aniq natija olindi.

$$\varphi = \frac{n}{m} = \frac{157}{192} = 0,81,7$$

Ushbu natija eng keng foydalaniladigan omonim soʻzlar misolida olingan.



12-rasm. Tizimda joriy etilgan rollar mexanizmining BPM modeli

XULOSA

O'zbek tilidagi omonim, polifunksional va polisemantik so'zlarni semantik analiz qiluvchi axborot tizimini ishlab chiqishda qator qoidalar ishlab chiqildi, axborot tizimidagi har bir funksional jarayon belgilab olindi ularning BPM modellari ishlab chiqildi. O'zbek tilidagi polisemantik so'zlarni kontekstda farqlash uchun albatta so'zlar orasidagi bog'lanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bog'lanishlar turkiy tillarda Grammatik aloqa deb ataladi. Gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro aloqasi yordamida semantik analizatorlar ishlab chiqiladi.

Mazkur tadqiqot ishida quyidagi natijalarga erishildi:

1. O'zbek tilidagi omonim so'zlarning grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib ikkita guruhga bir *so'z turkumi doirasidagi omonimlar* hamda *turli so'z turkumidagi omonimlarga* ajratib farqlash muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Bir so'z turkumidagi omonimlikni hosil qiluvchi so'zlar 5 (faqat ot, fe'l, sifat, olmosh, ravish) guruhga ajratilib, ular Mashinali o'qitishga asoslangan yondoshuvning Yashirin Markov modeli yordamida aniqlanishi asoslandi va natijalar olindi.

2. Turli so'z turkumlari doirasidagi omonimlikni hosil qiluvchi omonimlarni qaysi so'z turkumlari doirasida uchrashiga ko'ra 37 ta guruhga ajratilgan va ularni farqlashda qoidalarga asoslangan usul va Chastotali usul, hamda Naive Bayes usullaridan foydalanilgan. Turli so'z turkumlari doirasidagi omonim so'zlarni grammatik jihatdan farqli bo'lganlari ajratib olindi, ularni farqlovchi matematik modellar tavsiya qilindi. Xuddi shunday polisemantik va polifunksional so'zlarni grammatik xususiyatlariga ko'ra semantik farqlovchi matematik modellar tavsiya qilindi. Matematik modellarni ishlab chiqishda 72 ta belgilashlardan foydalanildi. Foydalanilgan belgilar jahon tajribasiga asoslangan.

3. O'zbek tilidagi omonim, polifunksional va polisemantik so'zlarni semantik farqlovchi axborot tizimining vazifasiga ko'ra uning konseptual modeli, axborot modeli hamda ma'lumotlar bazasining normallashtirish qoidalariga asoslangan ma'lumotlar bazasining ER modeli taklif etilgan. ER modelida 23 ta jadval tasvirlangan.

4. Axborot tizimidagi omonim, polisemantik hamda polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi biznes-jarayonlarning BPM modellari ishlab chiqilgan. Omonim so'zlarni farqlovchi 6 ta, polifunksionallikni farqlovchi 4 ta, polisemiyaning farqlovchi 1 ta, axborot tizimini xususiyatlarini ifodalovchi 3 BPM modellari ishlab chiqildi. Axborot tizimining funksional xususiyatlaridan kelib chiqib, uning arxitekturasini hamda strukturasi ishlab chiqilgan.

5. Ishlab chiqilgan matematik modellar, modellashtirilgan funksional jarayonlar asosida o'zbek tilidagi gaplar tarkibidagi omonim, polisemantik hamda polifunksional so'zlarni semantik analiz qiluvchi axborot tizimi ishlab chiqildi hamda sinovdan o'tkazildi. O'zbek tilidagi eng ko'p foydalaniladigan omonim, polisemantik hamda polifunksional so'zlar saralab olinib, axborot tizimi sinovdan o'tkazilganda 81.7% aniqlikka erishildi. Axborot tizimining aniqlik darajasini oshirish uchun neyron tarmoq modellaridan foydalanish tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.Т.07.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

АХМЕДОВА ХОЛИСХОН ИЛХОМОВНА

**РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ, АЛГОРИТМОВ И
ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ СЕМАНТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА
ПРЕДЛОЖЕНИЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

05.01.10 – Информационные системы и процессы

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in technical sciences is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.1. PhD/T2289.

Диссертация выполнена в Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Аннотация диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Элов Ботир Болтаевич

доктор философии по техническим наукам, доцент

Официальные оппоненты:

Сандов Абдусобиржон Абдурахмонович

доктор технических наук, профессор

Мухамедиева Дильноз Тулкуновна

доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

**Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова**

Защита диссертации состоится «22» декабря 2023 г. в 14:00 часов на заседании научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.01 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-43; e-mail: iktuit@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер № 2857). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-70).

Аннотация диссертации разослан «7» декабря 2023 года.
(протокол рассылки № 22 от «3» ноября 2023 г.).



M. M. Musaev

М.М. Мусаев
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

H. O. Rakhimov

Н.О. Рахимов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, доцент

D. B. Sultanov

Дж.Б. Султанов
Председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В результате усилий по автоматизации существующих задач, упрощения и облегчения человеко-машинного интерфейса за счет широкого внедрения современных информационных технологий в сферу компьютерной лингвистики уже в XXI веке люди изучают естественные языки и анализируют предложения посредством информационных систем. Такие средства являются продуктом новейших информационных и коммуникационных технологий, включая системы технической обработки (processing) и распознавания (recognition) изображений и речи, системы морфологического, синтаксического анализа текстов. Безусловно, в области компьютерной лингвистики большое внимание уделяется результатам исследований, проводимых ведущими учеными таких стран как США, Франция, Германия, Великобритания, Китай, Южная Корея, Япония, Россия, которые являются передовыми с точки зрения современных технологий.

В мире существует множество анализаторов, которые выполняют семантический анализ предложений на различных естественных языках. Все используемые при этом методы и средства различаются в зависимости от лексических и грамматических особенностей выбранного языка. В этом плане, важными задачами являются ведение научных изысканий по предварительной обработке текстов и разработке лингвистических анализаторов, разработка ER (Entity Relationship) модели базы данных информационных систем, осуществляющих целостное и безупречное с лингвистической точки зрения выражение особенностей естественного языка, выбор оптимальных подходов и решений для моделирования бизнес-процессов обработки языка и разработки информационных систем.

В Республике на государственном уровне осуществляется широкое использование современных информационных технологий и их исследование, популяризация разрабатываемых информационных систем, поддержка исследований в данной области. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации», в том числе определены такие задачи как «...проведение фундаментальных и прикладных исследований по приоритетным направлениям в области информационных технологии вперед... внедрение перспективных инновационных разработок и start-up проектов и поддержка их коммерциализации и трансферта технологий... развитие и стимулирование исследований и разработок в области цифровых технологий, совершенствование их организационных механизмов...»³. В целях реализации этих задач, в том числе анализа сложных систем, производимых на основе самых современных на сегодня технологий и разработки узбекской модели человеко-машинного интерфейса при их использовании, информационных

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года №УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации».

систем, в частности предложений на узбекском языке, на основе исследований, проводимых в рамках различных проектов. Разработка и представление информационных систем семантического анализа является одной из важных задач сегодняшнего дня.

